# O‘ZBEK FOLKLORI VA SHEVALARI TADQIQOTLARI: AMALIYOT, METODOLOGIYA, YANGICHA YONDASHUV”

**mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy konferensiya materiallari to‘plami**

2025-Toshkent

# MUNDARIJA

## YALPI YIG‘ILISH MA’RUZALARI


| | | |
|---|---|---|
| **1** | **Mamatkulova M.**<br>Turkiyada shevashunoslik va o‘zbek shevalarining o‘qitilishi | **3** |
| **2** | **Turdimov Sh.**<br>Qo‘rg‘on dostonchilik maktabi va Ergash Jumanbulbul o‘g‘lining ijodi | **9** |
| **3** | **Шамилова Г.**<br>Структурно-семантические особенности фразеологических единиц с числовым компонентом | **12** |
| **4** | **Sobirov A., Rahmatullayeva U.**<br>Andijon viloyati etnotoponimlarining areal manzarasi | **18** |
| **5** | **Абдиназимов Ш.**<br>Миллийлигимиз исми-шәрипимизден басланады | **23** |
| **6** | **Мыңбаев Н., Бобоходжаев Р.**<br>К вопросу о классификации тюркских этнических имен | **26** |
| **7** | **Abdiyev M., Rahmonov S.**<br>Pastdarg‘om tumani Chandir shevasiga xos so‘zlarning o‘zaro munosabatga kirishuvi holatlari | **34** |
| **8** | **Mengliyev B.**<br>“Korpus shevashunosligi” o‘quv fani haqida | **38** |
| **9** | **Elov B.**<br>O‘zbek tili milliy korpusi matnlarini dependency parsing usullari va algoritmlari | **43** |
| **10** | **Xolmanova Z.**<br>O‘zbek shevalari va turkiy tillar leksikasidagi mushtaraklik | **59** |
| **11** | **Ashirboyev S.**<br>O‘zbek shevalari normasi xususida | **64** |


## 1-SHO‘BA. SHEVALAR VA FOLKLORNING ILMIY MUAMMOLARI XORIJLIK OLIMLAR NAZDIDA


| | | |
|---|---|---|
| **1** | **Bahşiyeva T.**<br>Ermenistan'daki türk kökenli yer adları | **68** |
| **2** | **Quliyeva Z.**<br>Azərbaycan yaziçilarinin bədii əsərlərində toponimlərin üslubi xüsusiyyətləri (Cəlil Məmmədquluzadənin bədii nəsri nümunəsində) | **72** |
| **3** | **Абдусамад Э., Турдибеков М.**<br>Тожикистонда ўзбек шеваларининг ўрганилиши | **76** |
| **4** | **Sheronov B., Ermatov I.**<br>To‘ra Sulaymon ijodida dialektizmlar | **80** |
| **5** | **Adilbekova E., Berikkyzy S.**<br>Turk dastanlarinda kahraman kültü | **84** |
| **6** | **Асадова Ф.**<br>Обогащение Азербайджанского языка словами из современного турецкого языка | **88** |
| **7** | **Hüseynova E.**<br>Orxan Kəmalin əsərlərində Anadolu həyati | **93** |
| **8** | **Adilbekova E., Emre Gülce**<br>Türk dünyasi öğrencilerine yönelik türkçe öğretimi:yöntemler ve yaklaşimlar | **98** |

| | | |
|---|---|---|
| | “Alpomish” dostoni Bekmurod Jo‘raboy o‘g‘li talqinida | |
| **15** | **Isaqova E.**<br>“Layli va Majnun” dostoni: an’anaviy syujet va o‘ziga xoslik | **440** |
| **16** | **Saydullayeva A.**<br>O‘zbek va turk xalq sehrli ertaklarida homiy obrazlarning poetikasi va funksional tahlili | **444** |
| **17** | **Xidirova F.**<br>“Go‘ro‘g‘li” turkum dostonlarining o‘rganilishi | **446** |


## 5-SHO‘BA. FOLKLOR VA ADABIY ALOQALAR


| | | |
|---|---|---|
| **1** | **Tilavov A.**<br>Falakdan yashinday yengan bedovsan… (Mif va epos munosabatiga oid ayrim qaydlar) | **450** |
| **2** | **Madraximova N.**<br>“Shirin bilan Shakar” dostononing genezisiga doir mulohazalar | **454** |
| **3** | **Nurjanova Y., Saparboyeva S.**<br>Abdulla Qahhor asarlarida xalq maqollarining qo‘llanilishi | **458** |
| **4** | **Usmonova S., Sotiboldiyev D.**<br>Oq ilon timsolining badiiy asarlarda qo‘llanilishi | **460** |
| **5** | **Ashurova P.**<br>XX asr she’riyatida folklorizmning tutgan o ‘rni | **467** |
| **6** | **Xayrullayev A.**<br>Hikoyada xarakter va portret uyg‘unligi | **473** |
| **7** | **Mamadaliyeva M.**<br>Omonilla Madayev ijodiy merosida topishmoqlarning adabiy-estetik talqini | **477** |
| **8** | **Kuralbayeva G.**<br>Qaraqalpaq xalíq qaharmanlíq erteklerinde siyqírlí zatlardíń qollanílíw ózgesheligi | **480** |
| **9** | **Musayeva M.**<br>Hikmatnavislik an’anasi va tatar adabiyoti | **484** |
| **10** | **Turdimova F.**<br>Durdonalar jarangini eshitgan qalb | **487** |
| **11** | **Achilova Z.**<br>“Malla savdogar” dostoni va “Chol va dengiz” qissasi timsollari orqali inson “umid”ining qiyosiy tasviri | **490** |
| **12** | **Jiemuratova F.**<br>Qaraqalpaq xalíq dástanlarínda naqíl-maqallardíń tutqan orní (Er ziywar dástani misalinda) | **495** |
| **13** | **Qozaqova S.**<br>“Boburnoma” strukturasida maqollarning o‘rni | **499** |
| **14** | **Melibayeva S.**<br>Zamonaviy jamiyatda o‘zbek xalqi ism tanlashidagi motivlar tahlili | **502** |
| **15** | **Mahkamova D.**<br>Ieronim Megizerning “Turkiy til negizlari” asari va undagi maqollarning ifodalanishi | **505** |
| **16** | **Zaripova Sh.**<br>Abduqayum Yo‘ldosh ijodida folklorizm masalasi | **510** |
| **17** | **Shamsimatova M.**<br>Qutbning “Xusrav va Shirin” dostonida maqollarning ishtiroki | **513** |

## 5-SHO‘BA. FOLKLOR VA ADABIY ALOQALAR

# FALAKDAN YASHINDAY YENGAN BEDOVSAN…
## (Mif va epos munosabatiga oid ayrim qaydlar)

# YOU ARE A SILENT OVERCOME FROM THE SKY…
## (Some notes on the relationship between myth and epic)

**Abdumurod Tilavov,**
*ToshDO‘TAU dotsenti, filologiya fanlari nomzodi*
Doi.10.52773/tsuull.conf.2025/GDLI9017

**Annotation.** *This article is devoted to the image of the horse in Uzbek epic poetry and the mythical origins of this image. The article analyzes research related to the image of the horse from the time when folk epics were written down to the present day.*
**Key words.** *Horse, image, myth, star, cholpon, topqir, epic.*

Dostonlarimizda qahramon oti ko‘k-yulduz bilan ham bog‘lanadi. Bu ot “yulduzni ko‘zlovchi”, “ko‘kka qarab intiluvchi”, “uchishga shay qush”, “falakdan yashinday engan bedov” (“Qunduz bilan Yulduz”) deya ta’riflanadi. Qardosh xalq eposida ba’zan qahramon otining yulduzga aylanishi uchraydi. Bu holat ko‘pincha jangovar ot egasiga yordam berishga ojizlik qilgan paytda yuz beradi. Masalan, oltoy eposida Temichi-Eren ismli ot Oq Cho‘rmon yulduzi qiyofasiga kirib osmonga “singib ketadi”, keyin esa, yana qaytib keladi[Никифоров 1915; 28]. Qardosh yoqut eposida bunday lavha bor: “Obratil svoyu loshad Severnoy Medveditsey (Arangas Sulus), uzdu poruchil Pleyadam (Yurgyal), sedlo poruchil blujdayuщiey zvyozde (Nындыs), nedouzok poruchil venere (Cholpan)”[ Худяковым 1980; 108].

Hodi Zarifov otning yulduz bilan bog‘lanishi masalasi ustida uzoq to‘xtalmaydi: “Otning yulduzga intilishi uning eng yaxshi xosiyati – chopqirlik, uchqurlik belgisi sifatida ko‘rinishi mif bilan bog‘liq ekanidan dalolat beradi. “Oqbo‘zot”, “Ko‘kbo‘zot” deb atalgan yulduzlar haqidagi miflar bu masalani kengroq yoritishga yordam beradi”[Зарифов 80]. O‘rta Osiyo xalqlari orasida keng tarqalgan bu mifda osmondagi ikki yulduz-ikki otni yetti yulduz[26] - yetti bo‘rini quvadi. Lekin bu otlarni tuta olmaydi.

Hurmatli olimimizning fikrlariga ilova o‘laroq, Kichik ayiq burjining oq va bo‘z otlar tomonidan tortilganligi, turkning ko‘kdan otda tushganligi, hatto yoqutlarda ilk insonning ko‘k yuzidan tushgan yarmi ot, yarmi inson vujudli maxluqdan tarqalganligi haqidagi miflar ham mavjudligini aytish mumkin. Sulaymoniya kutubxonasidagi XIX asrga oid bir baytarnomada “Turkning qanoti bo‘lgan ot, Tangrining buyruqlari ado etilsin, Turk budunining shon-shuhrati yo‘qolmasin, buduni doim budun bo‘lib qolsin, deya qog‘onga **ko‘kdan yuborilgan** yordamchilardan biri edi”, deyiladi.

Oltoy va Sibirdagi turkiy qavmlarning ilk dinlari bo‘lmish shomonlikda ham otning **ko‘klardagi** quyosh o‘lkasidan kelganligiga ishonilgan[27].

Ot bilan bog‘liq bu kabi mifologik tasavvurlar, ishonch, e’tiqodlar dostonlardagi ot obrazining tub asosida turganligi tabiiy.

Ot obrazining bevosita yulduzga bog‘liq holda tasvirlanishini qadimiy diniy tushunchalar orqali ham aniqlashtirib olish mumkin. Chunonchi, qadim ajdodlarimiz tangrini osmonda-yulduzda deb

[26] Халқимизда бу юлдузлар “етти қароқчи юлдуз” дейилади.
[27] Қиёсланг: “Фалакдан яшиндай энган бедовсан” (“Қундуз билан Юлдуз” достонидан).

bilishgan: “Xalq og‘zaki ijodida shakllangan ta’birlarga ko‘ra, har insonning ko‘kda bir yulduzi bor. Tangrilarning bir qismi ko‘kda, yulduzlarda, bir qismi yer ostida, dengizlarda yohud yuksak tog‘larda qo‘nim topgan”[Мурот 1991]. Tarixchilar tomonidan ajdodlarimizning eng qadimiy dini deb ko‘rsatilayotgan Ko‘k-Tangri dinining asoslari ham dostonlarimizdagi “ot-ko‘k” motivini oydinlatishga yordam beradi.

Butun kuchlar va butun go‘zalliklar bir narsada, ya’ni ko‘kda to‘plangan edi. Ko‘kning parchasi yo‘q edi. Bir xil rangda, moviylikda to‘plangan bir butun. Muqaddaslarning muqaddasi, go‘zallarning go‘zali va yana bir bo‘lgan ko‘k edi. Shuning uchun otli turkiylarning tangrilari ham yagona, faqat ko‘k kabi buyuk edi”[Ўгал 1991; 68].

Turkiy xalqlarning eng qadimiy yodgorliklaridan bo‘lgan “O‘g‘iz dostoni”da O‘g‘iz xon el (yurt)ga katta ziyofat bergach o‘g‘illariga qarab shunday deydi:

...Ey o‘g‘illarim!
Ne janggohlarni ko‘rdim! Ne hududlardan oshdim!
Ne kargilar[28] bilan ne o‘qlarni otdim!
Ot bilan qancha yurdim! Ne dushmanlarni yig‘latdim.
Qancha do‘stlarni kuldirdim!
Men to‘ladim ko‘p shukr –
Qarzimni Ko‘k Tangriga!

Demak, dostonlarimizdagi “ot-ko‘k” detali biz yuqorida qisman izoh berganimiz Ko‘k-Tangri ishonch-e’tiqodining xalq og‘zaki ijodidagi tajalliysi, binobarin, baxshi tomonidan ot obrazini ilohiylashtirish uchun qo‘llangan usullardan biri bo‘lishi mumkin. Qahramonlik tipidagi “Go‘ro‘g‘li” turkumi dostonlarida mifik G‘irotning “G‘irko‘k”, “Ko‘kg‘irot” deb aytilishi fikrimizga ancha aniqlik kiritadi. Bu nom tarkibidagi “ko‘k” so‘zi otning ranginigina ifodalamaydi. Shubhasiz, bu ham Ko‘k-Tangri dinining asoslari, ko‘k so‘zining etimologiyasi bilan bog‘liq. Avvalo shuni ta’kidlash o‘rinliki, “ko‘k-turk” birikmasi tarkibidagi “ko‘k”, “ko‘k osmon”, ya’ni samoviy degan ma’noni ham bildiradi.

Demak, baxshi tasvirlayotgan qahramon oti oddiy emas, samoviy otdir. Samoviy otlar haqidagi tushuncha esa real asoslarga ega. Chunonchi, O‘rta Osiyoda, xususan Farg‘ona vodiysida yetishtirilgan naslli otlarni chet elliklar “qon terlaydigan samoviy otlar” deya ta’riflashgan. Xitoy hukmdorlari bu otlardan olib kelish uchun Farg‘ona vodiysiga maxsus odamlarni ko‘p miqdordagi oltin va kumush bilan jo‘natgan.

Ko‘k rangi turkiy mifologiyada go‘zallik ramzi va qadim ajdodlarimiz e’tiqod qilgan ko‘k tangrining rangi tarzda talqin etiladi. Turklarning totem hisoblaganlari bo‘riga “ko‘k” so‘zini qo‘shib “ko‘k bo‘ri” deyishlari ham xarakterli. Bu faqat bo‘rining rangini ko‘rsatish uchungina emasdi, albatta. Ajdodlarimizning qadimgi inonchlari bo‘yicha, biror narsani ko‘k rangga bo‘yash yoxud “ko‘k” so‘zi bilan birga aytish, o‘sha narsani muqaddas deb bilish, uni ilohiylashtirish edi. Chunonchi, dostonlardagi jangovar ot obrazi bu jihatdan ota-bobolarimizning ot bilan bog‘liq ishonch-e’tiqodlariga muvofiq kelmoqda. Xalqimiz orasida ko‘pni ko‘rgan, tajribali, keksa kishilarga hurmat yuzasidan “Oq soqol” deyishadi. Qardosh qirg‘iz xalqining “Manas” dostonida bosh qahramon – Manasning o‘g‘liga ism qo‘yish uchun paydo bo‘lgan Xizrga nisbatan “Ko‘k soqolli” iborasi qo‘llanilgan. Uyg‘ur harflari bilan yozilgan “O‘g‘iznoma”da O‘g‘iz xonga yo‘l ko‘rsatgan bo‘ri “ko‘k tukli”, “ko‘k yolli”, deya sifatlanadi. Qirg‘iz xalq dostonlarida “kok jal”, ya’ni ko‘k yolli (bo‘ri) eng jasur bahodirlarga beriladigan unvondir. “Ko‘k” so‘zining yo‘l ko‘rsatuvchi, yo‘l boshlovchi (“Oq soqol” kabi. – A.T.) ma’nolari ham bor. Qo‘y va echki suruvlarini boshqaruvchi taka yo serkalarga, uning rangi qanday bo‘lishidan qat’i nazar, qirg‘izlar “ko‘k serke” deyishadi. O‘rta Osiyo xalqlarining ba’zi ertaklarida egasiga sodiq va uni bir necha falokatlardan qutqargan vafodor itlarga nisbatan “ko‘k dumli it” iborasi ishlatilgan[Радлов 304].

[28] Карги – учи қайрилган найза; жанг қуроли.

“O‘g‘iznoma”da yer-suv tangrilardan kelgan va Ko‘k Xon, Tog‘ Xon va Dengiz xonlarini tuqqan afsonaviy qiz ko‘zining rangi ko‘k ekanligi alohida aytib o‘tiladi: “Anung ko‘zi ko‘kten ko‘krak edi”[Турк мифологияси 136]. “Manas” dostonida endigina tug‘ilgan, bo‘lajak qahramon Manas uchun “ko‘zlari qizil-qizil, yuzi esa ko‘m-ko‘k edi”, deyiladi.

Demak, G‘irotga “ko‘k” so‘zining qo‘shilishini tarixiy asoslarga suyanib, otning qahramonga homiyligi[29], otning mifologiyasida muqaddasligi, samoviyligiga ishora deb tushunish mumkin.

Yuqorida bayon etilgan ilmiy mulohaza va ashyoviy dalillarga tayanib, quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

O‘zbeklar turkiy xalqlar tarkibida yashagan qavm sifatida “Avesta”, “O‘g‘iznoma”, “Kitobi Dada Qo‘rqut” kabi tarixiy-adabiy yodgorliklardan o‘rin olgan totem, fetish, anim tushunchalariga an’anaviy yo‘sinda e’tiqod bilan munosabatda bo‘lganlar.

Birorta totem hayvon tushunchasi xalq hayotidan tasodifiy o‘rin olganligi ma’lum emas. Muqaddas hayvonga aylangan totemlar, albatta, tabiiy xususiyatlari jihatidan insondan yuqori turgan va inson uning mazkur fazilatini o‘ziga mezon sifatida qabul qilgan. Bo‘rining kurashchanligi, otning masofani tez bosib o‘tishi, aqlliligi, hushyorligi, tuyaning chidamliligi kabi o‘lchovlar xalq tomonidan bu hayvonlarning totem sifatida qabul qilinishiga asos bo‘lgan.

Umuman turkiy xalqlar, xususan, o‘zbeklar otning har bir xususiyatini alohida-alohida namoyon etish uchun vositalar kashf etganlar va bu vositalar orqali otning asosiy fazilatlari avloddan-avlodga madaniy meros tarzida an’ana bo‘lib o‘tgan.

Otning totem sifatida xalq ishonchlarida saqlanib qolishida juda ko‘p san’at turlarining ta’siri bor. Ayniqsa, so‘z san’ati, haykaltaroshlik, tasviriy san’at, amaliy san’at, me’morlik obidalarida boshqa totem hayvonlar qatori otning alohida o‘rin olgani fikrimiz dalilidir.

Tabiiyki, tarixiy obidalarda totem o‘laroq madh etilgan ot ko‘p jihatdan hayotiy asosga ega bo‘lgan hikoyalar, rivoyatlar, afsonalar bilan tasdiqlanishi lozim. Shuning uchun mavzu yuzasidan 7-8 yil mobaynida olib borilgan kuzatishlarimizda Farg‘ona, Andijon, Namangan, Qashqadaryo, Surxondaryo, Samarqand, Navoiy viloyatlarida istiqomat qiluvchi mahalliy xalq orasida ot bilan bog‘liq hayotiy hikoyalarning hozirgi paytda ommaviy tarzda yashab kelayotgani mantiqan asoslangandir.

Turkiy xalqlar hayotida hozirga qadar saqlangan ayrim urf-odatlar va irim-sirimlarda otga e’tibor o‘z ifodasini topgani ma’lum bo‘ldi.

Turkiylarda otga munosabatning ildizlari xususidagi talqinlarimiz ot obrazining xalq og‘zaki ijodida o‘z badiiy ifodasini topishi uchun naqadar hayotiy asosga egaligini yaqqol ko‘rsatadi.

Qahramonlik tipidagi o‘zbek xalq dostonlarida tasvirlangan ot obrazi xalqimizning mifik dunyoqarashi, ishonch-e’tiqodlarini o‘zida mujassam etgan obraz sifatida xarakterlidir. Binobarin, ajdodlarimizning ot bilan bog‘liq totem tasavvurlari xalq og‘zaki ijodidagi ot obraziga ko‘chib o‘tganligi ma’lum bo‘ldi. Qahramon otining dostonlarda suv, yulduz – ko‘k bilan bog‘liq holda tasvirlanishi fikrimizni dalillaydi.

Ot obraziga mifik belgilarning kirib qolishi tarixiy va hayotiy asoslarga ega. Ot obrazining bu jihatini yoritish uchun ana shu tarixiy vva hayotiy asoslarini tashkil qiluvchi ma’lumotlardan xabardor bo‘lish maqsadga muvofiqdir.

Yuqorida qayd etilgan xulosalar xalq dostonlarida ot obrazining atroflicha yoritilishi uchun hayotiy zaminni tug‘dirgan. Shuning uchun ham o‘zbek xalq epik ijodida, xususan, dostonlarda ot obrazining badiiy jihatdan mukammal tasvirlanishi xalq so‘z san’atida qonuniy o‘rin egallagandir.

Ot obrazining bu jihatini yoritish uchun ana shu tarixiy vva hayotiy asoslarini tashkil qiluvchi ma’lumotlardan xabardor bo‘lish maqsadga muvofiqdir.

[29] Бу хусусият қаҳрамонлик типидаги бутун достонларимизда ўз ифодасини топган. Шу сабаб, биз бу ҳақда кенг тўхталиш, мисоллар келтиришни лозим топмадик.

Yuqorida qayd etilgan xulosalar xalq dostonlarida ot obrazining atroflicha yoritilishi uchun hayotiy zaminni tug‘dirgan. Shuning uchun ham o‘zbek xalq epik ijodida, xususan, dostonlarda ot obrazining badiiy jihatdan mukammal tasvirlanishi xalq so‘z san’atida qonuniy o‘rin egallagandir.

## Foydalanilgan adabiyotlar

1. Радлов В. “Proben der Volksliteratur der turkischen Stamme Sudsibiriens”. V. 304-бет. St., Pdg.
2. Турк мифологияси. 1-жилд. – Б. 136.
3. Мурот Ўроз. Турк асотирлари // Сирли олам. – 1991. – №2.
4. Ўгал Б. Турк маданияти тарихига кириш // Туркларда қишлоқ ва шаҳар ҳаёти (Кўктурклардан усмонлиларгача). 1-жилд. – Анқара, 1991. – Б. 68.
5. Зарифов Ҳ. Жанговар отнинг қадимий асосларига доир // Пўлкан шоир. – Б. 80.
6. Худяков-Верхоянский сборник. Якутские песни, сказки, загадки и пословицы, а также русские сказки и песни, записанные в верхоянском округе И.А.Худяковым. – Иркутск, 1890. – С. 108.
7. Аносский сборник. Никифоров Н.Я. Собрание сказок алтайцев с примеч. ГН.Потапина. Зап. Всорго. – Омск, 1915. т. XXX`VIII. – С. 28.
8. Aliqulova H. Folk fantasies related to national dress artistic interpretation in the yor-yor. Eurasian journal of Academy research. Volume 2 Issue 12, November 2022. N https://doi.org/10.5281/zenodo.7397165. - B. 1243-1246.